

Bakteriyalar, viruslar va zamburug'larga qarshi preparat

O'zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida ilk bor sellyulozaning suvda eruvchan, zaharsiz hosilasi - Na-karboksimetilsellyuloza va barqarorlashtirilgan kumush nanozarralari asosida nanotexnologik yondashuvlarni qo'llagan holda bakteriyalar, viruslar va zamburug'larning keng doirasiga qarshi yuqori bakteritsid faollikka ega bo'lgan "Baksergel" gidrogelini olish texnologiyasi ishlab chiqildi.



Dori vositalari tasniflagichiga muvofiq preparat kam zaharli moddalar sinfiga mansub. "Baksergel" kuyishdan hosil bo'lgan yaralar va trofik yaralarni davolash, shuningdek, akusherlik-ginekologiya amaliyotida bachadon bo'yni eroziyasini davolashda qo'llash uchun mo'ljallangan. Hozirgi vaqtida preparatning klinikagacha bo'lgan sinovlari nihoyalanib, uning klinik sinovlari respublikaning uchta yetakchi klinikalarida boshlangan. Klinik sinovlar yakunlangach, "Baksergel" preparatini ishlab chiqarish texnologiyasi "Torimed Farm" MChJ farmatsevtika korxonasida ishlab chiqarish joriy etiladi.